

**SUDGA OID TRANSPORT IZSHUNOSLIK EKSPERTIZA SOHASINI  
RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA USTUVOR  
YO`NALISHLARI**

**U.A.Abdumajidov**

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining Sud avtotexnika ekspertizasi laboratoriyasi yetakchi eksperti Toshkent shahri, 100105, Mirobod tumani, Farg'ona yo'li ko'chasi, 46-uy. Telefon raqami: +998-94-428-50-05*

**Annotatsiya:** *Sudga oid transport izshunoslik ekspertizasi sohasini rivojlantirish, ekspertlar makalasini oshirish, fuqarolarga soha bo'yicha aniq, ishonchli va shaffof ma'lumot berish, transport izshunoslik ekspertizasining mazmuni, o'tkazilish tartibi haqida xabardor qilish.*

**Kalit so'zlar:** *Sudga oid transport izshunoslik ekspertizasi, avtotexnik ekspertiza, ekspert fikri, identifikatsiya, takrorlanuvchanlik, qiyosiylik.*

**Аннотация:** *Развивать сферу судебной транспортной экспертизы, повышать квалификацию экспертов, предоставлять гражданам четкую, достоверную и прозрачную информацию в данной сфере, информировать о содержании и порядке транспортной экспертизы.*

**Ключевые слова:** *Судебно-транспортная экспертиза, автотехническая экспертиза, экспертное заключение, идентификация, воспроизводимость, сопоставимость.*

**Abstract:** *To develop the field of judicial transport expert examination, to increase the expertise of experts, to provide citizens with clear, reliable and transparent information on the field, to inform about the content and procedure of transport expert examination.*

**Key words:** *Forensic transport expertise, auto technical expertise, expert opinion, identification, reproducibility, comparability.*

## **KIRISH**

Ushbu tezisda Sudga oid transport izshunoslik ekspertizasiga oid barcha ma'lumotlar, Sudga oid transport izshunoslik ekspertizasining nazariy asoslari, ob'ektlari, uning barcha turlari haqidagi bilimlar to'lig'icha mujassamlantirilgan bo'lib, bunday ma'lumotlarni o'zlashtirish orqali ushbu soha bo'yicha to'liq va aniq tushuncha beriladi, shuningdek, hozirgi zamonning talabiga javob beradigan ekspert amaliyoti uchun zarur bo'lgan axborotlar berilgan.

Asosiy qism: O'zbekiston Respublikasida qonun ustuvorligi mamlakatning rivojlanishidagi asosiy tamoyillardan biri sifatida e'tirof qilingan. Binobarin, ba'zi holatlarda huquqni muhofaza etuvchi idoralarning faoliyatida tibbiyot, biologiyaga oid masalalami hal etish zarurati vujudga keladi. Amaldagi qonun hujjatlariga binoan, bunday hollarda sud tibbiyotining amaliy Yo'l harakatida avariyalardan yo'qotishlarni kamaytirish yo'l harakati sharoitlarini yaxshilash, transport vositalarining konstruksiyasi va ularning texnik holatini

takomillashtirish, haydovchilarning malakasini oshirish va intizomini mustahkamlash, qatnashchilarning uyushgan harakatini tashkil qilish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirishni talab qiladi. Profilaktik chora-tadbirlar orasida yo'l-transport hodisasining sabablari va unga hamrohlik qiluvchi omillarni tadqiq qilish alohida o'rin egallaydi. Bu sabablarni va YTHning vujudga kelishi va rivojlanishiga ko'maklashuvchi omillarni faqatgina yo'ldagi holat va uning o'zgarishlarini detalli tadqiq qilish bilangina aniqlash mumkin bo'ladi.

YTHni ekspertiza qilish deb hodisaning barcha jihatlarini ilm-fan, texnika va soha bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lgan shaxslar tomonidan majmuaviy ilmiy-texnik tadqiq qilishga aytiladi.

YTH to'g'risidagi ishlar bo'yicha ekspertning harakatlari ayblanuvchining harakatlariga huquqiy baho berish ularga bog'liq bo'ladigan bir qator holatlarni aniqlashga qaratiladi.

YTHning asosiy elementlari bo'lib hisoblanadigan holatlarga quyidagilar kiradi:

YTHning mexanizmi;

xavfli va avariya vaziyatlar;

xavfning vujudga kelish momenti;

haydovchining sensomotor reaksiyasi;

hodisa joyi;

haydovchining harakatlari va avariya oqibatlarini o'rtasidagi sabab bog'lanishlari;

hodisaning oldini olishning texnik va psixofiziologik imkoniyati (imkoniyatsizligi);

haydovchining YTH momentidagi psixologik holati;

transport vositasining texnik holati va hodisa joyida yo'lning obodonchiligi;

bir qator boshqa hosilaviy omillar.

YTHning mexanizmi - bu hodisaning unda ishtirok etgan elementlarning o'zaro harakatlari bilan tavsiflanadigan dinamik jihati bo'lib, hodisaning vujudga kelishi, rivojlanishi va yakun topishiga ta'sir ko'rsatuvchi sabablar va shartsharoitlarning o'zaro bog'lanishidir ko'rinishi bo'lgan tegishli sud-tibbiy ekspertizalarning tayinlanishi lozimligi belgilangan.

YTHning sud ekspertizasi - bu protsessual harakat bo'lib, jinoyat va fuqarolik ishi bo'yicha haqiqatni aniqlash uchun dalil bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan amaldagi ma'lumotlarni aniqlash maqsadida YTH to'g'risidagi ishning holatlarini tadqiq qiladi. Bunday amaldagi ma'lumotlar boshqa dalillar asosida olingan ma'lumotlarni tekshirishda ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. YTHning sud ekspertizasi tergovchilar, surishtiruvchilar va maxsus bilimlarga ega bo'lgan - qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa shaxslarning topshirig'iga binoan O'zbekiston Respublikasi Davlat sud ekspertizasi xodimlari tomonidan o'tkaziladi. Ba'zi bir hollarda tergov va sud organlari ekspertizani o'tkazishni shtatsiz ekspertlar - ilmiy-tadqiqot institutlari va laboratoriyalarining, oliy o'quv yurtlarining xodimlari, turli xo'jalik sub'ektlariga topshiradi. YTHni ekspertiza qilishda asosan sud-tibbiyot, avtomobil texnikasi va kriminalistika sohasidagi maxsus bilimlar zarur bo'ladi. Sud avtotexnik ekspertizaning maqsadi barcha fazalarda YTHning ilmiy asoslangan tavsiflarini aniqlash, YTHning ob'ektiv sabablari va uning barcha ishtirokchilarining o'zini qanday tutganligini aniqlash bo'lib hisoblanadi. Ekspertiza natijasida ushbu YTHni tadqiq qilayotgan shaxs asosiy savolga javob bera olish imkoniga ega bo'lishi lozim: hodisa uning xavfsizlik qoidalariga rioya qilmagan ishtirokchilarining noto'g'ri hatti-harakatlari natijasida sodir bo'lganmi? Bu maqsadga erishish uchun ekspertiza davomida vujudga kelgan bir nechta xususiy vazifalar hal qilinadi. YTHning

holatlariga bog'liq ravishda bu vazifalar turlicha kombinatsiyalarda uchrashi mumkin. Umumiy ko'rinishda ular quyidagicha ifodalanadi:

- YTH ga ko'maklashgan omillarni aniqlash, tizimlashtirish va tanqidiy tahlil qilish. Bunday omillarga odatda quyidagilar kiradi: transport vositalari va yo'lining texnik holati, transport vositalari va piyodalarning harakat parametrlari, yo'l harakatining tashkil qilinishi va tegishli texnik vositalar;

- YTH ning vujudga kelishi va rivojlanishiga ko'maklashishi mumkin bo'lgan omillarni tahlil qilish, ularni nazariy va eksperimental tadqiq qilish;

- tadqiq qilinayotgan YTH ning texnik sabablarini va hodisaning alohida ishtirokchilarining uning oldini olishi mumkin bo'lganligini aniqlash;

- tadqiq qilinayotgan YTH qatnashchilarining o'zini qanday tutganligi va ularning hatti-harakatlarining yo'l harakati qoidalari va boshqa me'yoriy hujjatlarga qanchalik muvofiqligini aniqlash; Har bir YTHga "gapirmaydigan guvohlar" - ashyoviy dalillar hamrohlik qiladi. Ekspertning bilimlari va tajribasi ularni "gapirishga" majbur qiladi. Ekspert tergov jarayoni davomida va ishni sudda ko'rib chiqishda vujudga keladigan maxsus savollarga javob topadi. U tergovchi va sudga YTHning mexanizmini o'rganish, hodisaning ishtirokchilariga to'g'ri yuridik baho berish, uning holatlarini har tomonlama va tanqidiy talqin qilish, konkret jinoyat ishi uchun ularning ahamiyatini aniqlashga yordam beradi. Qatnashchilarning tarkibi bo'yicha ekspertizalar komission, majmuaviy va bitta ekspert ishtirok etadigan ekspertizalarga bo'linadi. YTHning xarakteri uning holatlarini talqin qilishda qarama-qarshiliklarni chaqirmaydigan nisbatan oddiy holatlarda ekspertiza ekspertning bir o'zi tomonidan o'tkaziladi. Komission ekspertiza ko'p sonli ishtirokchilar va transport vositalari qatnashgan murakkab hodisalarni o'rganishda, shuningdek ularning talqin qilinishi shubha uyg'otadigan yoki qarama-qarshiliklarni chaqiradigan holatlarda tayinlanadi. Komissiya tarkibiga bir xil mutaxassislikka ega bo'lgan bir nechta ekspertlar kiradi. Komissiya a'zolari xuddi o'sha bitta ob'ektlarni bargalikda tahlil qiladi va xuddi o'sha bir xil savollarga javob topadi. Ekspertlar komissiyasi uning barcha a'zolari bilan kelishilgan umumiy xulosani yoki xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risidagi dalolatnomani taqdim qiladi. Qaramaqarshiliklar vujudga kelgan taqdirda komissiyaning har bir a'zosi o'zining fikrlarini yozma ravishda, asoslangan holda taqdim qilishi mumkin (O'zR JPK ning 266-moddasi). Majmuaviy ekspertiza vujudga kelgan masalalarni bir turdagi mutaxassislar tomonidan hal qilib bo'lmaydigan va turli mutaxassisliklarga ega bo'lgan shaxslar talab qilinadigan holatlarda tayinlanadi. Majmuaviy ekspertizada komissiya tarkibiga ekspert-avtotexnikdan tashqari tibbiyot xodimlari, kriminalistlar va boshqa mutaxassislar kiritilishi mumkin. Komissiya xuddi o'sha bitta ob'ektlarni tadqiq qiladi va turlicha bilimlar sohasiga ega bo'lgan mutaxassislar uchun umumiy bo'lgan savollarga javob topadi. Majmuaviy ekspertizaning xulosasida har bir ekspert qanday tadqiqotlarni qanday hajmda o'tkazganligi va qanday xulosaga kelganligi ko'rsatiladi. Har bir ekspert xulosaning uning tadqiqotlari va xulosalarini o'z ichiga olgan qismiga imzo qo'yadi. Agar ekspertizani o'tkazish ekspertlik muassasasiga topshirilgan bo'lsa, u holda majmuaviy tadqiqotlarni o'tkazishni tashkil qilish uning rahbarining zimmasiga yuklatiladi.

O'tkazish navbati bo'yicha birlamchi, qo'shimcha va takroriy ekspertizalar ajratiladi. Birlamchi ekspertizani o'tkazishda ekspert-avtotexnik tergovchi yoki surishtiruvchining qarorida mavjud bo'lgan konkret savollarga javob topadi. Qo'shimcha ekspertiza ekspertning

xulosasi etarlicha aniq va etarlicha to'liq bo'lmagan holatlarda, shuningdek avval tadqiq qilingan holatlar bo'yicha yangi savollar paydo bo'lgan holatlarda tayinlanadi. Qo'shimcha tadqiq qilish avval berilgan xulosani aniqlashtiradi, YTHni tadqiq qilish jarayoni va xulosaning mazmunini oydinlashtiradi. Avval qo'yilgan savollarga berilgan javoblar qo'shimcha ravishda asoslanadi. Takroriy ekspertiza ekspertning malakasiga, ekspertiza to'g'ri o'tkazilganligiga, ekspertning xulosalari ob'ektiv ekanligiga, xulosaning asosiga qo'yilgan ma'lumotlarning ishonchligiga nisbatan shubha tug'ilgan holatlarda, shuningdek JPKning talablari buzilganda tayinlanishi mumkin (BR JPK ning 239- moddasi). Takroriy ekspertiza ko'pincha komission bo'ladi va faqatgina yangi tarkib bilan tayinlanadi. Yangi komissiyaning tarkibiga birlamchi yoki qo'shimcha ekspertizalarda qatnashgan ekspertlar kiritilmaydi. Takroriy ekspertiza har doim birlamchi va qo'shimcha ekspertizalarda qo'yilgan xuddi o'sha savollarga javob beradi. Agar yangi savollar qo'yilgan bo'lsa, u holda ekspertiza faqatgina takrorlanadigan savollar va ob'ektlar qismida takroriy deb hisoblanadi, qolgan qismlarda esa ekspertiza birlamchi ekspertiza bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida sud dalillari deb qonunchilik bilan belgilangan, jinoiy jarayonni olib borayotgan organ ular asosida jamiyat uchun xavfli bo'lgan hatti-harakatlarning borligini (yoki yo'qligini), bu hatti-harakatlarni sodir qilgan shaxsning aybdorligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik bo'lgan boshqa holatlarni aniqlaydigan har qanday amaldagi ma'lumotlar hisoblanadi (O'zR JPK ning 88-moddasi). Bunday dalillarga quyidagilar kiradi: guvohlar, ayblanuvchi (gumondor), jabrlanuvchining ko'rsatmalari, ekspertning xulosasi, ashyoviy dalillar, tergov-surishtiruv va sud harakatlarining bayonnomalari va BR JPKda ko'zda tutilgan boshqa hujjatlar. Ekspertning xulosasi avttransport bilan sodir qilingan jinoyat ishlarini isbotlashda muhim vosita bo'lib hisoblanadi. u isbotlab beruvchi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. U ilmiy ma'lumotlar asosida olinadigan tadqiqotlar, shuningdek jinoyat ishida qayd qilingan amaldagi holatlar asosida olinadi. Ekspert taqdim qilingan dalillarni uning oldiga qo'yilgan vazifalarga muvofiq maxsus bilimlar yordamida tadqiq qilish bilan ish bo'yicha boshqa dalillarni ham aniqlaydi. Shunday qilib, sud ekspertizasi tomonidan aniqlanadigan daliliy ma'lumotlar umumlashtiruvchi bilib olish jarayonining natijasi bo'lib hisoblanadi va xulosa xarakteriga ega bo'ladi. Ekspert-avtotexnikning xulosasi tergov va sud uchun majburiy bo'lib hisoblanmaydi, biroq ularning mutaxassisning xulosalariga rozi emasligi qoralash aybnomasi, hukm yoki takroriy ekspertiza o'tkazish to'g'risidagi qarorda aks ettirilishi va asoslanishi lozim.

XXI asrda transporting ko'pgina turlari keng tarqalishi munosabati bilan transportdan jarohatlanishlarning turlari keskin ko'payishiga olib keladi. Bu jarohatlanishlardan qurbon bolganlarning soni yildan-yilga davom etuvchi urushlarning o'rtacha masshtabi bo'yicha taqqoslanishi mumkin. Ayniqsa, bular orasida avtomobildan jarohatlanish muhim ahamiyatga egadir. Hozirgi davrda butun dunyo yo'llarida haryiliga 300 000 ga yaqin odam o'ladi va 10 mlndan ko'prog'i jarohatlanadi, ammo bu jarohatlanish doimo o'sib borayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Mamlakatimizda, transportdan jarohatlanishni oldini olish to'g'risida anchagina tadbirlar ko'rilishiga qaramasdan undan o'lim yuqoriligicha qolmoqda. Shuning uchun ham sud tibbiyoti ekspertizasi amaliyotida transportdan jarohatlanish muhim o'rin egallaydi. Sud tibbiyoti nuqtai nazaridan transportdan jarohatlanish deganda, harakatlanuvchi transportning tashqi va ichki qismlaridan, shuningdek, harakatlanuvchi transportdan yiqilish tufayli olgan mexanik jarohatlanishlar tushuniladi.

Transportlarning turiga qarab jarohatlanishlar quyidagi turiarga bo'linadi:

- 1) avtomobildan jarohatlanish;
- 2) mototsikldan jarohatlanish;
- 3) traktordan jarohatlanish;
- 4) tramvay va metro transportidan jarohatlanish;
- 5) temir yo'l transportidan jarohatlanish;
- 6) aviatsiya transportidan jarohatlanish;

7) suv transportidan jarohatlanish. Bunday bo'linish har xil transport vositasining ta'siridan o'ziga xos zarar yetkazilishi bilan xarakterlanadi. Transportdan sodir bo'lgan voqeaning oldini olishda har bir hodisani sinchiklab tekshirish, jarohatlanishga olib kelish sabablari va sharoitlarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Yo'l transport xavfsizligi qoidalari buzilishining 70-75 foizini harakat qatnashuvchilari - mashinani boshqaruvchi, piyodalar, kam hollarda yo'lovchilarning o'z faoliyatiga e'tiborsizlik bilan qarashlari tufayli texnika xavfsizlik qoidalariga rioya qilmasliklari sababli yuzaga keladi va faqat barcha transport hodisalarining 1/3 qismi yo'lning qoniqarsiz holatda bo'lishi va avtomashinaning texnik nosozligi hisoblanadi. Yo'l-transport hodisalarining odamni o'limga olib keluvchi asosiy turlari, shaharlarda piyodalarning avtotransport vositalari bilan bosilishi ham -da transport vositalarining urilishi hisoblanadi. Shuning uchun ham ko'pincha jarohatlanishni piyodalar va avtomobil ichida bo'lgan shaxslar oladi. Shunga qaramasdan, avvallari piyodalar transportdan yo'lovchilarga qaraganda ikki martadan ko'proq zararlangan bo'lsalar, keyingi paytda avtomobil ichida bo'lgan yo'lovchilarning o'limi anchagina oshib ketdi. Hozirgi davrda transportdan jarohatlanishda ko'pdan-ko'p uchraydigan va bir-biri bilan qo'shilib ketgan jarohatlanishlar kuzatilib, bular jabrlanuvchi tanasining barcha bo'limlarida yoki bir necha bo'limlarida ucliraydi, 50 foizga qadar og'ir kalla-miya jarohatlanishi ko'zga tashlanadi. Jarohatlanishlarning bunday strukturasi o'limning asosiy sababchisi hisoblanib, bunda odam tanasining ikki yoki undan ko'proq qismlarining bir-biri bilan qo'shilib jarohatlanishi yoki kalla-miya jarohatlanishidan odatda jabrlanuvchi o'lib ketishi mumkin. Yo'l transporti xavfsizligi profilaktikasida mastlik holati bilan kurashish juda muhim ahamiyatga ega. Bizga ma'lumki, yollarda baxtsiz hodisalarning 50 foizga yaqini spirtli ichimliklar iste'mol qilish tufayli sodir boladi. Shaharlarda, odatda, transportning qurboni mastlik holatidagi piyodalar hisoblanadi. Qishloq joylarida transportni mastlik holatida haydovchilar avariyaning asosiy sababchilaridir. Maxsus tekshiruvlarning oqibati shuni ko'rsatadiki, hatto qonda 0,5% alkogol bo'lganda ham haydovchining atrofdagilarga nisbatan kritik munosabati o'zgaradi va natijada u o'zining qobiliyatini yuqori baholaydi. Barcha yuqorida keltirilganlar murakkab yo'l sharoitlarida transportni boshqarish qobiliyatini susaytiradi. Haydovchini alkogol bilan yengil zaharlanish paytida (alkogolning miqdori qonda 1,5% bolganda) uning avariya qilish ehtimoli 5-10 martaga, mastlik holatining o'rtachadarajasida (alkogolning qondagi miqdori 1,5-2,5% bo'lganda) avariya qilish ehtimoli 25-50 martadan ko'proq bo'ladi. Shu munosabat bilan juda hayratlantiruvchi narsa, Sharqiy Yevropada qon tarkibida 0,8% va hatto 1% alkogol bo'lganda ham mashinani boshqarishga ruxsat beriladi. Ko'pgina transport hodisalari va halokatlari juda qisqa muddatda (soniyalar ichida), ko'pincha guvohlar bo'lmagan davrda sodir bo'lib, bu voqea sodir bolganligi qidirishda muhim qiyinchiliklartug'diradi. Shuning uchun ham sud va qidiruv organlari sud tibbiyoti ekspertining oldiga katta talablarni qo'yadi va bu o'z

navbatida ishning holatini aniqlashda ekspertizaning natijasi uchun katta ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Avtomobildan jarohatlanishning sud tibbiyoti ekspertizasi Avtomobildan jarohatlanish transportdan jarohatlanishning eng ko'p qismini tashkil etadi. Ayrim chet el davlatlarining ko'rsatishicha, avtomobildan jarohatlanishdan o'lim yurak-qon tomiri sistemasi va rak kasalliklaridan keyin uchinchi o'rinni egallaydi. Agaryoshlik davrini hisobga oladigan bo'lsak 24-25 yoshlar o'lim sodir bo'lishida ikkinchi o'rinni egallaydi. Avtomobildan jarohatlanish soni avtomobilning miqdori, yolning holati, haydovchining kasbiy darajasi, yo'l harakati xavfsizlik holati va boshqalarga bogliq. Mamlakatimizda avtomobildan jarohatlanish tashqi taassurotdan olim ning anchagina foizini tashkil qilib, sud tibbiyoti ekspertizasi amaliyotida nisbatan ko'proq uchraydi.

Bugungi kunda transport izshunoslik ekspertizasi xulosasiga zarur bo'lgan eng keng tarqalgan holat, bu surushtiruv va tergov organi hisoblanadi, chunki ushbu yo'l-transport hodisasi natijasida voqea joyida beriladigan ko'p savollarga yechim aynan transport izshunoslik ekspertizasi orqali olinadi.

Ushbu ekspertiza quyidagi masalalarni hal etadi:

- transport vositalaridagi jarohatlarning hosil bo'lish mexanizmini aniqlash;
- to'qnashuv vaqtida transport vositalari bir-biriga nisbatan qanday holatda bo'lganini aniqlash;
- to'qnashuv vaqtida transport vositalariniig bo'ylama o'qlari o'zaro (bir-biriga nisbatan) qanday burchak ostida bo'lganini aniqlash;
- transport vositalari dastlab va keyinchalik qaysi qismlari bilan to'qnashganini belgilash;
- voqea joyidagi izlarga ko'ra hodisa qanday tarzda boshlanini aniqlash;
- to'qnashuv joyi yo'l qatnov qismining qayerida bo'lganini aniqlash;
- to'qnashuv yo'l qatnov qismining qaysi tomonida sodir bo'lganini aniqlash;
- to'qnashuv vaqtida transport vositalari yo'l o'qiga nisbatan qanday burchak ostida bo'lganini aniqlash;
- to'qnashuv gacha, to'qnashuv vaqtida va undan keyin transport vositalarining harakat yo'nalishlari qanday bo'lganini aniqlash;
- to'qnashuv vaqtida transport vositalari harakatda bo'lgani yoki ularning bittasi to'xtab turgan bo'lganini aniqlash.

Avtotransport vositalarining aloqa izlari yo'l-transport hodisasi holatlari to'g'risida muhim ma'lumot manbai bo'lib, unga ko'ra nafaqat avtomobilning boshqa transport vositasi yoki boshqa to'siq bilan bevosita o'zaro ta'siri jarayonini, balki mexanizmini ham tiklash mumkin.

Sudga oid transport izshunos ekspertning vazifasi barcha izlarni aniqlash va tuzatish uchun transport vositasini to'liq, izchil tekshirish va agar kerak bo'lsa, ularni yo'l-transport hodisasi mexanizmini keyinchalik o'rnatish uchun rekonstruksiya qilishdir.

Transport trasologiyasining vazifalaridan biri transport vositalari va ularning qismlarini aniqlash texnikasi va vositalarini ishlab chiqish, ularning identifikatsiyasi jinoyatlarni tergov qilishda daliliy fakt hisoblanadi. Biroq, asosiy vazifa yo'l-transport hodisasi mexanizmi bilan bog'liq diagnostika masalalarini hal qilish metodologiyasini ishlab chiqish.

Bu diagnostika vazifalarini hal qilishda (avtomobilning harakat yo'nalishini, transport vositalarining to'qnashuv joyi va burchagini aniqlash, ularning to'qnashuv vaqtida o'zaro

joylashishi va boshqalar) transport trasologiyasining o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi, unda izlarning tasnifi, ularni aniqlash va baholash usullari, transport vositalarining, xususan, birinchi navbatda, transport trasologiyasining asosiy ob'yekti bo'lgan avtomobillar va motosikllarning funksional xususiyatlarini bilish bilan bog'liq sud bilimlari. Transport trasologiyasi katta guruhlariga tasniflangan iz hosil qiluvchi ob'yektlarning juda cheklangan (xilma-xilligi bo'yicha) izlari bilan shug'ullanadi. Trasologik tasnifdagi dastlabki asosiy xususiyatlar bunday ob'yektlarning tashqi tuzilishining xususiyatlari (g'ildirak, bamper, faralar va boshqalar.). Bu belgilar ularning umumiy shakli va o'lchamida, shuningdek, sirtlarning makro va mikro tuzilishida aks yetadi.

Avtotransport, yo'l va to'siqlardagi yo'llar bo'ylab harakatning nisbiy joylashuvi va yo'nalishini aniqlash usuli odatda universaldir va ular qaysi transport vositasida qolganiga bog'liq yemas. Tajribalar natijalarini baholashda, albatta, o'lchovlar, o'rganilayotgan ob'yektlarning maqsadi, voqea holatlari va izlarning shakllanishi sodir bo'lgan vaziyat to'g'risidagi ma'lumotlar hisobga olinadi.

Transport va trasologik tekshiruvdan oldin boshqa masalalar ham ko'tarilishi mumkin. Asosiysi, bu masalalar transport trasologiyasi bo'yicha mutaxassisning vakolatiga kiradi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, transport izshunoslik ekspertizasi sohasini rivojlantirish orqali yo'l-transport hodisalari tahlil qilinib, ularni kamaytirishga erishiladi, shu bilan birga transport izshunoslik ekspertizasining zamonaviy usullari va ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, sohani taraqqiy ettirish, shu orqali jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, adolat ustuvorligiga erishish mumkin.

Muhandislik-texnik ekspertiza sinfiga sudga oid transport izshunoslik ot va avtotexnika ekspertizasi, shuningdek, xavfsizlik, qurilish-texnik, yong'in-texnik, muhandislik-texnologik, portlash ekspertizalari kiradi.

Oldin: avtotexnik ekspertizasi o'rganishi bilan bog'liq savollar tug'iladi:

- a) transport vositalarining holati;
- b) yo'l-transport hodisasi holati;

Ekspert fikri

Ekspert xulosasi, qoida tariqasida, uch qismdan iborat: kirish, tadqiqot va xulosa.

Xulosaning moda qismi quyidagilarni ko'rsatadi: ekspertiza muassasasi: ekspertiza o'tkazilayotgan jinoyat ishi; ekspertiza tayinlagan organ; materiallarni topshirish va xulosa berish sanalari; savollar; olingan materiallar ro'yxati va qadoqlash holati; ekspert to'g'risidagi ma'lumotlar (lavozimi, mutaxassisligi, ilmiy darajasi, unvoni, ekspert tajribasi); tekshiruv vaqtida hozir bo'lgan. Ba'zi hollarda kirish qismida ishning qisqacha hikoyasi, shuningdek, ekspert tomonidan yuborilgan so'rovlar va ularga olingan javoblar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud. Takroriy imtihonlar xulosalarida, bundan tashqari, birlamchi ekspertiza xulosalari sanab o'tiladi, kompleks ekspertiza xulosalarida esa savollar turli mutaxassislik mutaxassislari o'rtasida qanday taqsimlanganligi ko'rsatiladi. Strukturaviy va tadqiqot qismi batafsil ekspertizadan boshlab imtihonning bosqichlarini ketma-ket aks ettiradi. Mutaxassis, qoida tariqasida, bitta texnika bilan chegaralanib qolmaydi va umumiy xususiyatlardan tortib, alohida ma'lumotlarga qadar ma'lumotlar to'plamini yaratishga intiladi. Xulosada qo'llaniladigan usullar ko'rsatilgan va unchalik ma'lum bo'lmaganlari manbaga asoslanib etarli darajada batafsil

bayon etilgan, shuningdek ishlatiladigan asbob-uskunalar, o'rganilishi kerak bo'lgan ish materiallari sanab o'tilgan.

Ekspert xulosasini dalil sifatida baholash tergovchi (sud) tomonidan umumiy asosda amalga oshiriladi.

Xulosa bilan tanishish jarayonida quyidagi savollarga aniqlik kiritiladi: taqdim etilgan materiallar yetarlimi, ekspert so'rovlarini qanoatlantirilganmi, taqdim etilgan materiallar to'liq va xolisona o'rganilganmi, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yetarli darajada samaralimi?, barcha savollarga javob berilganmi va ular belgilangan natijalarga mos keladimi. Keyinchalik, tergovchi (sud) ekspert xulosalarini ish bo'yicha to'plangan boshqa dalillar bilan taqqoslaydi, har bir aniqlangan faktning dalillar tizimidagi o'rnini va mazmunini aniqlaydi va xulosani bir butun sifatida baholaydi. Olingan xulosaga tushuntirishlar yoki qo'shimchalar olish uchun tergovchi ekspertni so'roq qilishi mumkin.

Ekspertning xulosasi va so'roq bayonnomasi ayblanuvchiga tanishish uchun taqdim etilishi kerak, u o'z tushuntirishlarini berishi va e'tiroz bildirishi mumkin. E'tirozlar muhim deb topilgan taqdirda, qo'shimcha yoki takroriy ekspertiza tayinlash to'g'risidagi masala ko'rib chiqiladi.

Ekspertiza tarkibiga ko'ra, individual (bitta ekspert), komissiya (bir sohada ikki yoki undan ortiq mutaxassis) mavjud. Amalda, komissiya imtihonlari odatda takroriy tadqiqotlar o'tkazishda uchraydi (mutaxassislarning har biri tadqiqotni to'liq hajmda olib boradi, shundan so'ng ular birgalikda xulosa tuzadilar. Kompleks sud ekspertizasi ishlab chiqarishda turli ixtisoslikdagi ekspertlar tomonidan ularning har biri o'z maxsus bilimlari doirasida tadqiqot olib boradi. Ekspert xulosasida har bir ekspert qanday tadqiqot va qay darajada o'tkazganligi, qanday faktlarni aniqlaganligi va qanday xulosaga kelganligi ko'rsatiladi. Kompleks ekspertiza o'tkazishda ishtirok etuvchi har bir ekspert xulosaning o'zi olib borgan tadqiqot tavsifini o'z ichiga olgan qismiga imzo chekadi va buning uchun javobgar bo'ladi. Umumiy xulosa olingan natijalarni baholash va ushbu xulosani shakllantirish vakolatiga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Agar umumiy xulosa uchun asos bir yoki bir nechta ekspert tomonidan aniqlangan faktlar bo'lsa, bu xulosada ko'rsatilishi kerak. Kompleks yoki komissiya ekspertizasini o'tkazuvchi ekspertlar yagona xulosani tuzadilar. Mutaxassislar o'rtasida kelishmovchilik yuzaga kelgan taqdirda, ularning har biri yoki boshqalar bilan rozi bo'lmagan ekspert alohida xulosa beradi. Ekspertiza tayinlashda ob'ektlarni qiyosiy o'rganish uchun zarur bo'lgan namunalarni to'g'ri tanlash hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ekspertiza uchun yuborilgan barcha namunalar quyidagi talablarga javob berishi kerak: takrorlanuvchanlik (ulardagi identifikatsiya belgilarining to'liq va aniq ko'rsatilishi); qiyosiylik (umumiy va qisman xarakteristikalar asosida taqqoslash uchun namunalardan foydalanish imkoniyati);

o'zgarmaslik (identifikatsiya davrida ko'rsatilgan xususiyatlarning barqarorligi);

kelib chiqishining haqiqiyliigi.

Xulosa berishda ekspert chiqadigan xulosalar kategorik va ehtimoliy (ijobiy va salbiy) bo'lishi mumkin. Ekspertning qat'iy xulosasi dalil manbai, xulosada ko'rsatilgan faktik ma'lumotlar esa ish bo'yicha dalil hisoblanadi. Ehtimoliy xulosa dalil manbai emas; u faqat tergovning keyingi yo'nalishini belgilaydi. Ehtimoliy xulosa operativ-taktik rol o'ynaydi va tabiiyki, hukmning asosi sifatida foydalanish mumkin emas.



Xulosa qilib aytganda, sud ekspertiza sohasini rivojlantirishning zamonaviy usullari va ustuvor yo`nalishlarini aniqlash, sohani taraqqiy ettirish, shu orqali jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta`minlash, adolat ustuvorligiga erishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining «Sud ekspertizasi to'g'risida»gi qonuni;
2. YTH mexanizmini matematik uslublar bilan tadqiqot qilish ekspertizasi bo'yicha metodik qo'llanma. Toshkent-2018;
3. Sudebnaya avtotexnicheskaya ekspertiza, ch.2 pod red. V.A.Parionova, VNIISE, M., 1980.
4. Ispolzovanie v ekspertnoy praktike eksperimentalno-raschetnykh znacheniy parametrov tormojeniya avtotransportnykh sredstv. RFSE, M., 1995;
5. Transportno-trasologicheskie issledovaniya. M. VNIISE, 1991;
6. Issledovanie texnicheskogo sostoyaniya transportnykh sredstv, agregatov i yego detaley. T. 2018;
7. Ekspertnoe issledovanie texnicheskogo sostoyaniya transportnykh sredstv. M. VNIISE 1984;
8. Iskandarov A.I., Eshmuradov B.A. Mexanik asfiksiyaning sudga oid transport izshunoslik ekspertizasi: O'quv-uslubiy qo'llanma. - T., 1998, 13s.
9. Iskandarov A.I., Eshmuradov B.A. Murdaning sudga oid transport izshunoslik ekspertizasi: O'quv-uslubiy qo'llanma. - T., 1998, 22 s.
10. Iskandarov A.I., Eshmuradov B.A. Nozo'raki o'limning sudga oid transport izshunoslikot ekspertizasi: O'quv-uslubiy qo'llanma. - T., 1999, 13 s.